

O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR
UYUSHMASI

MARJONA ESHQULOVA

IFTIXOR

She'rlar



TOSHKENT
“ADABIYOT”
2024

Badiiy rahbar:
Sirojiddin SAYYID

Mas'ul muharrir:
Botir ERGASHEV

Nashr uchun mas'ul:
Erkin HOJIMUHAMMAD

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan an'anaviy tarzda o'tkazilib kelinayotgan Respublika yosh ijorkorlarining Zomin seminarida 2024-yildan boshlab mamlakatimizning turli hududlarida faoliyat yuritayotgan ijod maktablari o'quvchilari ham ishtirok etishmoqda. Atoqli adiblar nomi bilan atalib, ta'lim jarayonida tilimiz va milliy adabiyotimizni chuqur o'rganishga, badiiy ijodga alohida ahamiyat berilayotgan mazkur o'quv dargohlaridan badiiy ijod bilan shug'ullanayotgan ko'plab yoshlar yetishib chiqmoqda.

Ijod maktablarining eng iste'dodli o'quvchilari ijodi kitob holida chop etilib, Siz adabiyot muxlislari hukmiga havola etilmoqda. Ulardan biri **Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi** o'quvchisi **Marjona Eshqulovadir**. Muallif hali yosh. Uning yozganlarida ma'lum kamchiliklar bo'lishi tabiiy. Lekin unda o'qish, o'rganish, izlanish, o'zini ijodiy jihatdan yuksaltira borish imkoniyati bor. Bu uning o'ziga bog'liq.

Kitob orqali yosh muallifning ko'ngil bitiklarini o'qib, uning ijod bulog'idan bahramand bo'lishingiz mumkin.

ISBN 978-9910-8882-8-1

© M.Eshqulova, 2024
© "Adabiyot", 2024

AYLANIB QOLSAYDIM

Aylanib qolsaydim mayin shamolga,
Butun bir dunyoni sayr etardim.
Yurtimning fusunkor jamolin kuylab,
Hatto o'shanda ham she'rlar bitardim.

Aylanib qolsaydim mayin shamolga,
Har kimni olisdan kuzatar edim.
Diydorga intizor dillar maktubin,
Kabutar misoli uzatar edim.

Aylanib qolsaydim mayin shamolga,
Davolab ketardim dil jarohatin.
Dunyoni bezardim ezgulik bilan,
Charchoq siylaganga berib rohatin.

VAQT

Ota, vaqtni birzum to'xtatib qo'ying,
Soat millari ham birzum to'xtasin.
Ular ham charchagan olis yo'l yurib,
Bir zumga bo'lsa ham damlarin olsin.

Ota, vaqtni birzum to'xtatib qo'ying,
Ko'zdagi yoshlarim qafasdan chiqsin.
Ular ham toliqdi, bardosh-la chidab,
Qalbdagi dardlarim nafasdan chiqsin.

Ota, vaqtni birzum to'xtatib qo'ying,
Buguncha onamning yonida qolay.
Meni ham charchatdi dunyo sinovi,
Issiq quchog'ida oromim olay.

Ota, vaqtni birzum to'xtatib qo'ying,
Mehringizga to'yay, g'amni unutib.
Nimaga erishdim sizdan uzoqda,
Nima ham toparman ertani kutib.

Ota, vaqtni birzum to'xtatib qo'ying,
Katta bo'lishni hech istamas yurak,
Yoningizda qolay erka qiz bo'lib,
Menga bundan ortiq yana ne kerak?

YOLG'IZLIK NIMA?

She'rlar yozdim ular etdi shod,
Qofiyalar keldi tugagach toqat.
Bir savol qalbmida qiladur faryod,
Ul savol javobin anglamam faqat.

Azizlar, ayting-chi, yolg'izlik nima?
Bir xona bag'rida tanho qolishmi?
O'zni qiynab inson dard alam chekib,
Hech kimsa yo'q vaqti tunda nolishmi?

Azizlar, ayting-chi, yolg'izlik nima?
Ko'zda yosh qalqib, so'rashmasa hol.
Senga ne bo'ldi, deb bermasa savol,
Ularga qiziqmas balki bu ahvol.

Azizlar, ayting-chi, yolg'izlik nima?
Faqat o'zi o'ynab, o'zi kulishmi?
Doim g'amlar ila tonglar ottirib,
Hamrohing soya bo'lib yolg'iz yurishmi?

O'yladim, savolning javobin topdim,
Hech bir kimsa mutlaq yolg'iz bo'lolmas!
Oxir yo'q savolning eshigin yopdim,
Hech bir inson tongni baxtsiz kutolmas!

SEN HAM QILGIN YAXSHILIK

Bir kun uchar o'shal osmonga
Dardlarini tushunar falak.
Gulga qadab ko'zyoshlarini
Go'zal yashar "Moviy kapalak".

Dengiz ranglari ham unda mujassam,
Ko'kning timsolini o'ziga olgan.
Kapalagim quvonch-la uchib,
Mening qalbimga ham quvonchin solgan.

Ming afsuski, qisqadur umri,
Bog'da gulga baxtni ulashar.
Bir kunini sevar shu qadar,
Bir onda ham baxtiyor yashar.

Yillab yashasak ham hayotning,
Chindan go'zalligin bilmaymiz.
Bir kunini sevib yashagan,
Kapalakcha shukur qilmaymiz.

Ko'ngillarni qilamiz vayron,
Ranjitamiz goho dillarni.
Sog'inamiz bir kuni giryon
Ortda qolgan o'shal yillarni.

KO'Z YOSHIMGA ARZIMAS DUNYO

Quvonch bilan boqarman kulib,
Hayot misli ertakdek go'yo.
Meni baxtsiz qilolmas hech kim,
Ko'z yoshimga arzimas dunyo.

Men yashayman har nafas kulib,
G'am-alamga yig'lamam kuyib.
Xayolimga kelsa-da ro'yo,
Yig'lashimga arzimas dunyo.

Anduhlarga qilmasman parvo,
Qalb to'rimda chalinar navo,
Menga baxtni ulashar havo,
Ko'z yoshimga arzimas dunyo.

Dod solmayman qalbmni tilib,
Jim turarman barchasin bilib,
Yuraveray shodlanib, kulib,
Ko'z yoshimga arzimas dunyo.

SOKIN TUN

Termulib turarman oyna ortiga,
Sokin tun, koinot ketgan uyquga.
Soat sadosini eshitmas hech kim,
Shivirlab ismimni aytdi allakim.

Shu zahot seskanib turdim o'rnimdan,
Qarasam xona bo'sh, kimsa yo'q unda.
Mening ismim mayin shivirlab aytgan,
Kim bo'ldi u?
Bemahal tunda,

Kimsasiz xonada jaranglar ismim,
Soat sadolari unga bo'lar jo'r,
Vulqonning tubida qolgandek jismim,
Go'yoki sokin tun, misli odamxo'r.

Asta turib bordim eshik tomonga,
Uning tirqishidan mo'raladim jim,
Sohilning labiga urilar dengiz,
Qiziq, mening ismim aytgan inson kim?

Ummon uzra turar to'lin oy aksi,
Bulutli osmonda sochin yoyar moh.
Tunda mening ismim shivirlab aytgan,
Ko'kdagi oy ekan bilmabman, ey voh.

ONAMNING YOSHLIGIN O'G'IRLAGAN KIM?

O'ylarim ketini topa olmayman,
Xayol og'ushida yurmagan hech kim.
Bir jumboq javobin axtarolmayman,
Onamning yoshligin o'g'irlagan kim?

Balki yillar qo'ydi uni qaritib,
Umr davomida sinov ko'p bo'ldi.
Yonida turmadim g'amni aritib,
Hayhot, yoshligini o'g'irlab qo'ydi.

Vaqt o'tib sochiga tushdi oq qirov,
Sababchisi menman, mendirman, balkim.
Men uchun yanchdi-ku kelsa hatto yov,
Men esa sho'xlikni bilibman hokim.

Kokiliga arg'imchoq solsa g'amlar
Sekin quchoqlasa uni ulkan dard,
Unga ta'sir qilmas gohi alamlar
Farzand mehri kerak onaga faqat!

Tabassum qilsa gar gullaydi ochun,
Axir ayol yaralgan doim baxt uchun,
Baxt vaqtga qarshi ko'rsatar kuchin,
Ado etoldimmi farzandlik burchin?

Yomg'ir so'rab nega panalaysan, do'st?
Kecha sen eding-ku yomg'irga muhtoj.
Uyg'ongan hislaring allalaysan, do'st,
Ko'ngil maskaningdan ketyapsan yiroq,

Yomg'ir so'rab nega panalaysan do'st?
Soyabon ostidan qidirib panoh.
Sen o'z xatoyingni yashirgan kabi,
Qalbing qo'rg'oniga berkinar gunoh...

OTAJON

Sizni juda sog'indim bugun,
Mehringizni qo'rsadim har on.
Hayot tashvishlarin unutib butun
Yoningizga chopdim, otajon.

Baxtga to'la jajji boladek,
Yoningizga yugurdim jo'shib.
Siz o'stirgan gul-u loladek
Ko'kka qarab boryapman o'sib.

Ota sizga kelar havasim,
Dengizdayin to'lib-toshaman.
Doim sizga qilmoq-chun ta'zim.
Huzuringiz tomon shoshaman.

KUZ

Oltin kuzga mehrim boshqacha,
Uch fasldan qisman farqliroq.
Xazonrezning o'zi o'zgacha,
U qalbimga porloq bir chiroq.

Chang va bo'roniga sira qaramay,
Men boricha sevaman kuzni.
Savolini bermay, biroz o'ylamay,
Bema'ni xayolga qo'ymayman o'zni.

Sahar chertsa yomg'ir oynamni
Gul bag'rini to'ldirsa shudring,
Yomg'ir hidi kelgan xonamni
Ko'rmoq uchun sizlar ham keling.

Faylasuf ham bilmaydi hatto
Biz sir bordir kuzning o'zida.
Insonlarni sarxush qilguvchi
Sehr bordir yomg'ir so'zida.

Xohlamayman kuz ketishini,
Lekin bugun uchinchi chorak.
Hatto kuzning qishini kutgan
Insonlarga ayoz muborak.

Bir kun ketsa, nahot xazonrez,
Oltinbarglar tark etsa meni.

Lek kuzakni sog'inganimda,
Choli qushim eslayman seni.
Men kuzakni sog'inganimda,
Choli qushim eslayman seni!

Yomg'irlar raqsiga to'lgandi osmon,
Samo sahnasida faqat yomg'irlar.
Men esa ketyapman bir manzil tomon,
Ko'zoynak ortida yomg'ir tomchilar.

Yo'lning bir chetida turardi bekat,
Qaygadur yo'l olgan parishon ayol.
Qo'lida bir dasta gul bilan surat,
Yuzida ma'yuslik, parishon xayol.

Notanish ko'chada ketayapman jim,
Olovli yaproqlar yomg'irlarida.
Lek meni tanimas bu yerda hech kim,
Chunki mening uyim lola bag'rida.

Mendan oldinroqda ketmoqda bir qiz,
Qo'ng'iroq sochlari suvda ivigan.
Uning orqasidan bordim izma-iz,
U ham alamlarga, afsus, ko'milgan.

Hazon to'ldirgandi oyoq ostini,
Shamol esar edi yuzga urilib.
Qizg'ish paltodagi sohibjamol qiz,
Ketardi goh yig'lab, gohida kulib.

Hamma o'zi bilan o'zi ovora,
Kim bahor ishqida, kuz dardida kim.
Baxtdan sarxush bo'lsa yana birovlar,
Kimlardir azobdan bosh egar, balkim.

Aslida baxt va dard o'zlikka yaqin,
Quvonch va qayg'ular birga og'a-in.
Inson gar xohlasa kunlari yorqin,
Gar buni aks bilsa g'amlardan horg'in.

Inson gar xohlasa kunlari yorqin,
Gar buni aks bilsa g'amlardan horg'in!

O'CHIB KETADI

Dardlarni bag'riga ishonib ketib,
Baxt mensiz uzoqda bilmam netadi?
Bir kuni tabassum eshik qoqqanda,
Kulaman, dardlarim o'chib ketadi...

Yoshli daryolarim quriydi bir kun,
Ohlarim quloqqa aniq yetadi.
Bekatdan baxtlarni kutib olganda,
Kulaman, dardlarim o'chib ketadi...

Oldinda barchasi, shirin kunlarim,
Hozircha baxtlarim meni kutadi.
O'shanda xotirni eslab tolqanda,
Kulaman, dardlarim o'chib ketadi...

BAXT HAQIDA HIKOYA QILING

Yurak bir burchakda g'ujanak bo'lgan,
Uning yolg'onlarni eshitgisi yo'q.
Yaqin do'stlarim ham ustimdan kulgan,
Dardimning azobdan ko'ngilchasi to'q.

Yolg'izman, go'yoki fazoda oydek,
Ammo atrofimdan joy olgan manfur.
Mehrli ko'zlarim kulib tursa-da
Bag'rimda yaralar quduqdek chuqur.

Balki baxtli bo'lmoq menga mos emas,
Balki jajji quvonch ko'pdir men uchun.
Lekin sabab nima? Aynan men, nechun?
Ha, men tanlanganman. Faqat sinov-chun!

Agar shodliklarga to'lmasa kunim,
Iltimos, quvonchlar bir bora keling.
Uyqusiz qolganda zulmatdek tunim,
Baxt haqida sizlar hikoya qiling.

IFTIXOR

Samodan balandda turar hilpirab,
Havasin keltirib butun dunyoni.
Anglatar tinchlikni hamda hayotni,
Ozodlikdek ulug' ramziy ma'noni!

Unga yarashadi baland cho'qqilar,
 Ulkan marralarga bizni chorlaydi.
 Yuksak maqsadlarni yurakka joylab,
 Yo'lchi yulduz bo'lib qalbda porlaydi!

Chiroyda tengi yo'q uning siyrati,
 Bu qadar mukammal hamda sermazmun,
 Bobolarim jonin tikkan yalovni
 Nega ko'zga surtmay? Asramay nechun?

Ulug' ajdodlarning tinchlik istagi,
 Temurni janglarda asragan tug' u.
 Qalbga bera olgan mehrday totli,
 Nomusdek muqaddas, sharaflı tuyg'u!

Mangu hilpirab tur, qaddingni tik tut.
 Yurtim tinchligingga ko'ztumor bayroq
 Menga oq yo'l tilab turibsan har on,
 Dunyoda topilmas mendan baxtliroq!

Ezgulik, poklikni joylab qalbimga,
 Tinchlikdek ne'matga yetkazding, shukur.
 Tomirda oqizib ajdodlar qonin,
 Musaffo hayotni berding tashakkur!!!

SO'NGGI IJRO

NOYABR oyining so'nggi kunlari,
Samo tomchilari bezar yer yuzin.
Mayin pichirlaydi qamar tunlari,
Yulduzdan bekitmay o'z sirli so'zin.

Kuzak mavsumining so'nggi kunlari,
Umidi uyquga ketar yaproqning.
Yechilar band kabi bir tugunlari,
Bag'ri xazonlarga to'lar tuproqning.

Skripka kuyining so'nggi notasi,
Kuzning oxiridan bermoqda darak.
Bisotida bugun ijrosi so'ngi,
Junbishga kelarkan eshitgan yurak.

Xayoliy manzilga ketayapman jim,
Olovrang yaproqlar oyoq ostida.
U yerlarda qalbga qilishmas hujum,
U yerlarda hayot bo'lar osuda.

Xayoliy manzilga ketayapman jim,
Jajji qushchalarning chug'uri hamroh.
U yerlarga izlab bormasin hech kim,
U yerlarda aslo bo'lmaydi gunoh.

Unda mujgonlarim bo'lmis sira nam,
To'yib nafas olish mumkin rohatdan.
Xayoliy manzildan mayli sizga ham
Olib qaytajakman bir quchoq baxtdan!

QORBOBO VA MEN

Qay o'lkadan keldingiz?
Yurtimizga marhabo!
Savolga tutildingiz,
Javob bering, Qorbobo!

Soch-soqollar buncha oq,
Keksa bu yosh nechada?
Bormi sizda turargoh?
Tunaysizmi ko'chada?

Bizning O'zbekistonga,
Keldingiz neni ko'zlab?
Salomlashsam siz bilan,
Qo'lim qolarmu muzlab?

Mening ismim Marjona,
Qilib turaman ijod.
She'r to'la daftar, mana,
Ko'nglimda orzu bunyod.

Sersavolman-da shunday,
Aybga buyurmaysiz.
Qizaloqman yoqimtoy,
Hech zerikib qolmaysiz.

Mayli, yashang biz bilan,
Bitta shartim bor, biroq:
Xuddi ust-boshingizdek
Ko'nglingiz bo'lsin oppoq!

AYOL

Ulug' bir so'zda bordir haqiqat,
Onalar oyog'in ostida jannat.
Gohida vujudim qamraydi xayol,
Nega ulug'lanmish bunchalik ayol?

Ona bo'lmoq ayolga katta bir baxtdir,
Sharafga erishish og'ir mehnatdir.
Boshimizda o'tirar kechalar bedor,
Har nedan muqaddas ul onaizor.

UMID

O umid, mudrama, uyquga ketma!
 Xayolparast qizning yupanchisan sen.
 Bevafo bahordek ketish istasang,
 Koʻzdan chiq, yosh kabi yuzlarida en.

O umid, mudrama, uyquga ketma!
 Qizchanning bor-yoʻgʻi sensan-ku faqat,
 Loqaydlik ila sen ham tark etsang,
 Qayerdan topadi sabrga toqat?

O umid, mudrama, uyquga ketma!
 Koʻngil kalitlari senda, uni och.
 Hali koʻp bahorni koʻrmagan qizning
 Yosh boʻlsa-da koʻngli qurigan yogʻoch.

O umid, mudrama, uyquga ketma!
 Ilinjsiz qizchada qolarmi ishonch?
 Hech boʻlmasa noming boʻlsin koʻnglida,
 Keyin hadya etay unga men quvonch.

GUL, KITOB, QASR KALITI

Moychechak bogʻidan uzgan gullarim,
Hali-hamon uygʻoq, uyquda emas.
Menga ilhom olib kelgan parilar,
Intiq boʻlib kutsam bir bora kelmas.

Stolim ustida men sevgan kitob,
Tuygʻular jonlangan uning satrida.
Bugun yolgʻiz boʻlib faqat men qoldim,
Billurdan yasalgan quvonch qasrida.

Gul, kitob... yonida qasr kaliti,
Kutdim, kelishmadi, endi eshik berk.
Negadir tuygʻular koʻtarib isyon,
Shovqin qilishmoqda, oʻzimdamas erk.

Goʻyoki hislarim qoshimga kelib,
Yuragim oʻrniga qoratosh soldi.
Azob va gʻazablar til biriktirib,
Chalajon umidning boʻgʻzidan oldi.

Barchasi juda tez boʻlgandi sodir,
Aqlimning oʻz kuchi yetmay qoldimi?
Ushbu billur qasr, unda bor bir sir,
Yo qasr roʻyodan oʻrin oldimi?

Gul, kitob... yonida qasr kaliti,
Vujudim ularga talpinar faqat.
Bemajol, ohista turish istasam,
Ustimda inkorlar bo'ldi qatma-qat.

Anglamoq mushkul-ku, bu qanday savdo?
Quvonchli qasr ham to'ldi qayg'uga.
Tosh bo'lgan yuraklar parchalangan on,
Isyonchi tuyg'ular ketdi uyquga!

SUKUT

Yashadim men faqat o'zimni sevib,
Ayab o'zgalardan shirin so'zimni.
Taqqosla bir bora deganda kishi,
Yuqori o'ringa qo'ydim o'zimni.

“O'tkinchi” deb do'stim ochganda so'zlar,
Aqalli qayrilib qilmadim parvo.
Qay bir so'z to'g'ri deb so'ralganida,
Qichqirdim “meniki” bo'lar doimo!

Natijada birga qolmadi hech kim,
Do'stinga aylandi g'am ila sukut.
Ichki ovozlarim pichirlab dedi –
“Sukutda o'tirib baxtlarni unut”.

O, MENING DENGIZIM

Charchasam, siqilsam, boraman senga,
Jamiki yoshimni yuvasan o'zing.
Xafahol, bemajol uxlasam agar,
Hattoki tushimda sharqirar so'zing.

Yaqinimdan yaqin sirdoshsan menga,
Doimo eng kerak malham bo'lasan.
Do'stimdan ham ustun dildoshsan menga,
Quvonsam men bilan birga kulasan.

Kunlar o'tsa agar, so'lib borsam men,
Bilaman o'shanda quriysan sen ham.
Dunyoni tark etib ketsam-da agar,
Dengizim, men seni unutmam hecham!

Tun tushgach zulmatlar olib bag'riga,
Qo'rqinchli sukutlar meni yutadi.
Kecha yozgan edim unga ko'p xatlar,
Bugun o'sha xatlar manzil kutadi.

Bormadim, so'zlashga topolmay jur'at,
Yig'lasam, siqilsam barini yozdim.
Yuzga tik boqishga botina olmay
Doimo men undan yuz burib qochdim.

Stol ustidagi dasta xatlarda,
Barcha hissiyotlar qorishib ketdi.
Manzilin topolmay o'sha maktublar
Shu kecha o'zimning boshimga yetdi.

TUSH

Kecha tush ko'ribman cheksiz adirni,
Unda yuguribman toychoqdek sakrab.
Men kutgan manzilga yetdim deganda,
To'satdan uxlabman tushimda charchab.

Hayqirgan daryoda baliqdek suzib,
Osmonda uchibman burgut misoli.
Kiyik bolasidek chopib maysada
Sakrardim quvonib tashvishdan xoli.

Naqadar ajoyib tuyg'u ekan bu,
Uchish armon emas baxtli qushlarda.
Hayotda qiynalib yurgandan ko'ra,
Yashashni istayman o'sha tushlarda!

ILTIMOS

Ruxsatsiz ko'nglimga tashrif buyurding,
So'roqsiz o'ynading tuyg'ularimni.
Sen ila mujdalar eshigim qoqib,
Mazasin qochirdi uyqularimni.

Sokin yuragimga o'rnashib olib,
Eng baland notada qo'shiq kuylading.
Asl yurak so'zi bir chetda qolib,
Foniy ishq haqida ertak so'ylading.

Kelding va o'zgardi barcha-barchasi,
Mutlaq men o'zgaga aylanganim rost.
Abadiy hayotda qololmasang ham,
Yuragimda mangu yasha, iltimos!

Dunyoda tuyg'ular qorishib ketgan,
Baham ko'ray desang bitta sherik yo'q.
Ba'zida tandagi mitti yuragim,
Chiqib ketay deydi misoli bir o'q.

Yaxshiyam yomg'ir bor, sayr bahona –
Yig'lasam yomg'irda ko'rinmas yoshim.
Farqi yo'q bulutning yo ko'zning yoshi,
Tomchilar doimo mening sirdoshim.

Keldim va ketsam ham anglamas hayot,
Kimsizlik hissini tuyish og'ir-da.
Hech kimga keraksiz yurgandan ko'ra,
Yuvilib ketsaydim o'sha yomg'irda...

HAYRATLAN

Hayratlan! Ko'zingga qo'nsin dunyo,
Xayoliy olamda kerakmas tartib.
Jilla qursa quvonchdan yig'lagin bir bor,
Yulduzlar qo'yadi yoshingni artib.

Hayratlan! Samoda dunyoni unut,
Sayyoralar ichra yolg'iz sayr et.
Fikrlari muzlab g'oyasi o'lgan,
Hayratsiz dunyoni bir on tashlab ket.

Hayratlan! Ko'zingda koinotni chiz,
Qorachiqqlaring ham yorilsin, hatto.
Bulutning bir bora ta'mini bilsang,
Chorlaydi o'ziga doimo samo...

Hayratlan...
Hayratlan...
Hayratlan...

ISHQ

Sevgidan uzoqlash yaqin yo'lama,
Ko'nglingni o'zgaga bermagin, dedi.
Minglab cho'pchaklarni to'qiganida,
Aslida, so'zlari uydirma edi...

Sevgini yolg'on deb ishqni toptadi,
Muhabbat qasriga qo'ymadi bizni.
Telbalik kuyiga muftalo bo'lib,
Tushlarim, mehmonga chaqirdi sizni...

Sevgida farq bormi, ular farqlimi?
Bilmayman, men, balki bila olmayman.
Yuragim darz ketib vujud titrasa
Hattoki mujgonga yosh ilolmayman...

Oshiqlik insonga zararmi, ayting?
Ishqsiz boshga bilmam nelar keladi.
Yana kimdir menga chegara qo'ysa,
Yuragim bir toshga o'rin beradi!

Agar yana kimdir chegara qo'ysa,
Yuragim bir toshga o'rin beradi!

SAMO

Men, balkim kechikdim! Ichikdim!
 Sen ayt-chi dunyoda bormikin ma'ni?
 Yo'q! Qayrilmayman hech qachon ortga,
 "Hayot degani – bu davom degani"

Diydalarning chuchuk yoshlari,
 Sug'ormoqda tinmay qalbimni.
 Ta'mirlarsiz qolgan tuyg'ular,
 Totganmikan yashash ta'mini?

Dudoqlarim pichirlab deydi:
 Imkon qadar seving meni ham.
 Lek sheriksiz qolganin bilib,
 Mujgonlarim bo'lar yana nam.

Yaxshiliklar tugadi bugun,
 Afzalrog'i, balki ertaga.
 Qaboq ko'zning rangini to'sib,
 Bosh tegsaydi bitta yelkaga.

* * *

Esingdami?
uchinchi sana,
Biroz yomg'ir, qorlar aralash.
Tushda seni ko'rgan ko'zimga,
telbalarcha jovdirab qarash.

Esingdami?
ilk so'zlarimiz,
Xayollarim, bari pinhona.
Sening kabi menda hayajon,
sendagi his emas begona.

Yomg'irlarda tozargan ko'cha,
bevaqtlikda, bebaxt gul yana.
So'zsiz kelib, indamay ketding
menda armon, o'tmish – kul yana.

Umid, orzu bir chetda qolib,
saqlaganing faqatgina kek.
Qo'rqma, hamon o'chirilmagan,
SMSlardagi cheksizlik.

Men o'zimdan qocholmayapman,
yuragimga isming qamalgan.
Nega meni qoldirib ketding?
she'r edim-ku senga atalgan.

Esingdami? 3-sana...

* * *

Sekin pichirlaydi menga namozshom,
go'dak uxlatyotgan ona singari.
Bu shahar bir meni ovoz chiqarmay
yamlamay yutadi avtolar kabi.

Metro guvullaydi tundan tonggacha,
hech bir bekat meni yupatolmaydi.
Odamlar ichiga o'zimni urib,
Yig'lagim keladi, negadir...

Yana ko'z yumaman tunda bariga,
ichimda quriydi hislar o'zagi.
Noyabr poygakka nigohin qadab,
Qo'llarin silkitar shunchaki.

Sovqotib o'tiraman yana kursiga,
Sevimli kitobim va qora qahva.
Bostirib eshikdan kirar tun
(Kun bo'yi xonada edi aslida.)

Gitara chaladi kimdir, begona
Notalar ko'nglimga botgandek bo'lar.
Qo'llari tekkanda uzilaman "chirs"
Yaqinda tug'ilgan isyonim o'lar.

Nafasimni tinmay yutadi havo,
Nur sanchilar ko'zimga tinmay.
Sog'inchdan bo'y cho'zgan qanotlarimni,
Sindirib olibman, o'zim ham bilmay.

* * *

Tag'in tun...
Uxlagisi kelmas odamning,
Uchgisi kelar.
Yig'lagisi kelar yulduzga qarab.
Va to'yib nafas olar sensiz havodan.

Qaldirg'ochlar
salom aytar,
Nur yog'ilar ko'zlarimdan.
O'zing aytgin qachon endi,
ko'zim tushar ko'zlaringga?!

Uxlamasdan tush ko'rarman,
Boshin egar bir tog'dagi yosumanlar.
Qani endi oqqush bo'lsam
Bir uchmoqqa orzumandman...

MUNDARIJA

Aylanib qolsaydim	3
Vaqt	4
Yolg'izlik nima?	5
Sen ham qilgin yaxshilik	6
Ko'z yoshimga arzimasa dunyo	7
Sokin tun	8
Onamning yoshligin o'g'irlagan kim?	9
Otajan	10
Kuz	11
O'chib ketadi	13
Baxt haqida hikoya qiling	14
Iftixor	14
So'nggi ijro	16
Qorbobo va men	17
Ayol	18
Umid	19
Gul, kitob, qasr kaliti	20
Sukut	21
O, mening dengizim	22
Tush	23
Iltilmos	24
Hayratlan	25
Ishq	26
Samo	27
"Esingdami..."	28
"Sekin pichirlaydi..."	29
"Tag'in tun..."	30

UO'K: 821.512.133-1(081)

KBK: 83.3(50'zb)

M 40

M 40 Eshqulova, Marjona

Iftixor [matn]: *she'rlar / Marjona Eshqulova.*

– Toshkent: “Adabiyot” nashriyoti, 2024. – 32 b.

ISBN 978-9910-8882-8-1

Adabiy-badiiy nashr

Marjona ESHQULOVA

IFTIXOR

She'rlar

Muharrir: *M. Nurmetova*

Badiiy muharrir: *A. Umarova*

Sahifalovchi: *A. Qayimov*

Musahhih: *I. Isamuhammedova*

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
“ADABIYOT NASHRIYOTI”

Nashriyot litsenziyasi: AI № AA 0043. 27.01.2020.
100129, Toshkent shahri, Markaz-15. 1/90.
Тел: (98) 128-30-04.

Bosishga 20.08.2024-yilda ruxsat etildi.
Ofset qog'oz. Qog'oz bichimi 70x90 ¹/₃₂.
Ofset bosma. Hisob-nashriyot t. 2.0.
Adadi 500 nusxa.



“MASHHUR-PRESS NASHRIYOTI” MCHJ
bosmaxonasida chop etildi.